

TOPICAL ISSUES OF ACCOUNTING DEVELOPMENT IN THE DIGITAL ECONOMY.

Islamov Abduxakim Abdusattarovich

E-mail: islamovabdi@gmail.com

Toshkent Moliya instituti

Audit A-3 gurux magistri.

Abstract: Organization of accounting in a digital economy, the creation of new labor processes and jobs based on innovative technologies, describe their essence, forms and shortcomings. The concept and essence of the digital economy in accounting, software used in the digital economy in accounting, cloud (cloud) technologies, their advantages, advantages and disadvantages.

Key words: Accounting, digital economy, software, cloud (cloud) technologies.

Butun jaxonda raqamli texnologiyalar barcha soxa va insonlar xayotiga jadal kirib kelmoqda. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar, rivojlanib, aksincha, eskicha ishlaganlar taraqqiyotdan orqada qolayotganini guvoxi bo'lib turibmiz. E'tiborga olish joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda juda ko'p isloxotlar amalga oshirilmoqda. Bular orasidan ayniqsa o'tgan 2020 yilning prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan "Ilm ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" va shu yili 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron xukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinishi iqtisodiyotni raqamlashtirishning o'ziga xos amaliy ibtidosi bo'ldi desak yanishmagan bo'lamiz. Elektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o'rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o'tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi. Ta'kidlab o'tadigan bo'lsak iqtisodiyotning raqamlashuvi ortidan dunyo mamlakatlari bilan tengma teng raqobat qilish, aloqa qilish hamda mamlakatimiz iqtisodiyotini shaffof, ya'ni kim yashirin iqtisodiyotdan qutilish uchun o'ziga xos zamin yaratadi.

Avvalo raqamli iqtisodiyotga o'tishda buxgalteriya xisobini raqamlashtirish talab etiladimi? Bugungi kunda bu soha raqamli iqtisodiyotga o'tishga tayyormi? Kadrlar va ularning malakasini oshirish, soni va sifati yetarli mi? Mamlakatimizning axborot texnologiyalari bunday katta o'ziga xos "sakrashga" tayyormi? Yana bir qator savollar bugungi kunning dolzarb masalalariga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi.

Raqamli iqtisodiyotning o'zi nima? Degan savolga mamlakatimiz iqtisodchilari turlicha javob berishgan va berib kelishmoqda. Turli manbalarda keltirilishi bo'yicha ayrimlarini sizning e'tiboringizga xavola etib o'tamiz.

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.

"Raqamli iqtisodiyot bu jarayonlarni taxlil qilish natijalaridan foydalanish va katta xajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili xisoblanadigan faoliyatdir". Iqtisodchi olim Sh. Mustafoqulov.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu-axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan xolda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini yuritish bo'lib, bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektiga tegishli bo'lgan xar qanday ma'lumot(maxsulotlar (ish xizmatlar)ni ishlab chiqarish, saqlash, sotish, ularni tashishga doir ma'lumotlar)larni saqlash, ularni qayta ishlash va uzatish va yordamida xo'jalik yurituvchi yurituvchi sub'ekt faoliyatiga yanada ijobiy va samarali ta'sir ko'rsatuvchi tizimdir.

Ya'ni kim raqamli iqtisodiyot xo'jalik subektiga tegishli keng ko'lamdagi ma'lumotlarni bir tizimga jamlash, ma'lumotlarni uzatish va saqlash, elektron savdo platformalarida savdo qilish va turli elektron axborot foydalanuvchilarini kerakli elektron axborot bilan qisqa vaqt ichida ta'minlash va xali biz bilmagan imkoniyatlarga ega tizimdir.



Kuzatishlar va natijalar.

BMT ning 2021 yildagi “Raqamli iqtisodiyot bo'yicha doklad”iga ko'ra 2019-yildagi butun jaxon pandemiya Covid-19 davrida raqamli transformatsiya jarayoni tezlashdi va davlat va xukumatlarning oldida bu jarayonga zudlik bilan reaksiya bildirish vazifasi turar edi. Bu jarayondagi asosiy masalalardan biri qanday qilib juda tez ravishda oshib borgan raqamli ma'lumotlar xajmini saqlash, boshqarish va ulardan inson manfaatlari uchun to'g'ri maqsadlarda foydalanish edi. Baxolash natijalariga ko'ra, 2022 yilda butun jaxon internet trafik sarfi, 2016 yilgacha bo'lgan butun jaxon internet trafikidan bir necha barobar oshib ketishi kutilmoqda. URL: <http://creativecommons.org/licenses/by/3.0/igo/>

O'tgan davrda shuni kuzatish mumkinki avvalo raqamli iqtisodiyotda IT yordamida tannarxni kamaytirishga, qo'shimcha qiymat yaratishga va sarf xarajatlarni optimallashtirishga erishildi.

Albatta dunyo iqtisodiyotining va axborot texnologiyalarining rivojlanishi buxgalteriya xisobini rivojlanishiga xam asos yaratdi va buxgalteriya xisobida avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanishga yanada keng imkoniyatlar ochib berdi.

Bugungi kunda xar qanday buxgalterni kompyutersiz yoki internet tarmoqlarisiz faoliyat olib borishini tasavvur qilish qiyin. Shu sababli mamlakatimizda buxgalteriya xisobini yuritishda bir nechta dasturiy ta'minotlardan foydalanib kelinmoqda. 1s, luz, estat, uzasbo dasturlari, buxgalteriya xisobotining my.soliq.uz, didox.uz, internet banking, soliqservis.uz saytlari shular jumlasidandir.

Bu texnoloialarning foydalanishda ijobiy tomonlari bilan birga salbiy tomonlarini xam ko'rish mumkin. Foydali tomonlarini sanab o'tsak. 1s, luz dasturiy ta'minotlari foydalanuvchiga ma'lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash imkonini beradi. Bu qo'lda qayta ishlash bilan taqqoslaganda buxgalter vazifasini sezilarli darajada osonlashtiradi va qimmatli bo'lgan vaqtning tejalishiga juda katta yordam beradi. Bunday avtomatlashtirish yordamida o'z navbatida boshlang'ich xujjatlarni avtomatik ravishda to'ldirish, xajmi yirik ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash, inson omili tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarni qisqartirish va oldini olish, ortiqcha qog'ozbozlik, raxbariyat, tashqiliy bo'linmalar va quyi

bo'g'inlar o'rtasida ma'lumot alishishni tezlashtirish va yana bir qancha foydali jixatlari bilan ko'rish mumkin. Asosiy kamchiliklarini sanab o'tadigan bo'lsak, yuqorida sanab o'tilgan dasturlarda, ayniqsa buxgalteriya xisobida axborot alishuvida ishlatiladigan internet saytlari my.soliq.uz, didox.uz, internet banking va bir qancha saytlarda yuzaga keladigan asosiy muammolardan biri internet serverlarining katta xajmga mos ravishda ishlab berolmasligida. Ya'ni kuzatishlar bo'yicha xar xisobot davrining so'ngiga yaqinlashganda internet saytlariga bo'lgan yuklamalarning oshib ketishi tufayli serverlarning qisman yoki butunlash ishlamasligiga guvox bo'lingan. Buning natijasida axborot alishuvining sekinlashuvi yoki butunlay to'xtab qolishi ro'y beradi va buxgalterga bir qator noqulayliklar keltirib chiqaradi.

Cloud (bulut) texnologiyalari-bu yirik xajmdagi ma'lumotlarni saqlashning yangi ko'rinishi bo'lib, internet serverlarda o'z ma'lumotlarimizni oshonchli va ximoyalangan ravishda saqlashimizga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi, buxgalteriya xisobining avtomatlashuvi natijasida xar qanday xujjatlarning skanerlangan yoki raqamlashtirilgan variantlarini Cloud (bulut) texnologiyalarida saqlash imkonini beradi. Bu shunisi bilan e'tiborga molikki, ortiqcha qog'ozbozlikning oldi olinadi va ma'lumotning to'liq va ishonchli saqlanishiga yordam beradi. Cloud (bulut) texnologiyalariga google drive, dropbox yoki microsoft office va bir qancha Cloud (bulut) texnologiyalari serverlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bulutli texnologiyalardan foydalanishda har qanday qurilmadan (noutbuk, planshet, mobil qurilma) foydalanish imkoniyati mavjud, o'ziga kerakli to'plam uchun haq to'laydi, foydalanuvchi uchun ayni paytda zarur bo'lgan funktsiyalarni mustaqil tanlash imkoniyatlarining (ulanish tezligi, xotira hajmi, hisoblash kuchi, shuningdek bulutni ijaraga olish vaqti) mavjudligidir. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish sohada quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- ma'lumotlar almashinishi tezlashadi;
- mehnat samaradorligi ortib vaqt tejaladi;
- maxsulot tannarxi aniq hisob kitoblar orqali aniqlanadi;
- ko'p hajmli ma'lumotlarni tez qayta ishlash imkoni yaratiladi;
- ortiqcha qog'oz sarfi oldi olinadi;
- arifmetik xatolar oldi olinadi;
- faloiyat yuritishda joy, vaqt va qurilmalar ahamiyati kamayadi, ya'ni ma'lumotlardan xoxlagan joyda, xoxlagan vaqtda va xoxlagan qurilma (noutbuk, planshet, mobil qurilma) orqali foydalanish mumkin;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolatda quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin, buxgalteriya xisobini raqamlashtirish xar qanday korxona, xo'jalik yurituvchi sub'ekt va davlat uchun xam juda muxim va murakkab vazifalardan biridir.

Shu qatorda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish sohada afzalliklar bilan birga ayrim muammoli vaziyatlarni ham vujudga keltiradi va quyida biz ularning asosiylariga to'xtalib o'tamiz.

Avvalo sohaga yuqori malakali kadrlar yetishmasligidan boshlasak-bilamizki xozirda kadrlarga, ayniqsa buxgalteriya xisobi soxasi kadrlariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu personal kompyuter va axborot telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishni bilishidadir. Bunday kadrlar eskicha ishlaydigan kadrlarga nisbatan ancha tez natija ko'rsatishi bilan farqlanib turadi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchi yana bir asosiy muammolardan biri umumiy tarmoqqa ulangan xo'jalik brituvchi sub'ektlarning ximoyalanmagan ma'lumotlari, tarmoqqa sizib chiqishi natijasida oshkor bo'lishidir. Foydalanuvchi agar o'z axborotining xavfsizligini kerakli darajada ta'minlay olmasa bu xavf juda katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Va eng asosiy muammolardan yana biri yuqorida aytib o'tganimizdek internet tezligining pastligi tizimdagi muammolarga abab bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda iqtisodiyotni raqamlashtirish buxgalteriya xisobida foydalanuvchilarni imkoniyatlarini kengaytiradi, buxgalteri xizmati va samaradorligini oshiradi, zamonaviy buxgalteriya xizmatlarining xar xil turlarini integratsiyalashda juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Tadqiqot xulosasida quyidagi takliflarni bildiramiz:

-Buxgalteriyada zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali buxgalter ishini avtomatlashtirish va tezlatishda katta ijobiy yordam beradi. Qog'oz almashinuvini sezilarli kamaytirib, atrof muxitga bo'lgan zarar kamaytiriladi.

-Buxgalteriya xisobida bulutli texnologiyalarni ommalashtirish lozim. Bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga juda qisqa vaqt ichida ma'lumot almashinish imkonini beradi. Faqat ma'lumotlarni tegishli dasturiy ta'minotlar orqali ishonchli ximoyalash talab qilinadi.

-Internet xizmatlarini sifatini oshirish va yuqorida aytganimizdek serverga bo'ladigan yuklamalarni kamaytirish orqali buxgalteriya ish sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin.

-va so'ngida raqamli iqtisodiyotda buxgalteriya xisobining me'yoriy xuquqiy asosini yaratish uchun qonunchilik va tegishli yo'riqnomalarni ishlab chiqish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. [Toshkent moliya instituti r. H. Ayupov, G. R. Boltaboeva raqamli iqtisodiyot asoslari](#)
2. Соатова Ш. / Рақамли иқтисодиёт ҳақида нималарни билиш керак? / (<https://sof.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-haqida-nimalarni-bilish-kerak> 01.27.2020)
3. Жумаев Н. / Рақамли иқтисодиёт нега керак ва у нима беради? / <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>
4. Евсюкова О.В., Юрьева О.А. / Роль и значение бухгалтерского учета в условиях цифровой экономики / Молодой исследователь Дона. – 2019. – №. 25. — С. 108–112. http://mid-journal.ru/upload/iblock/cea/24_Evsyukova_108_112.pdf
5. Круликовский А. П., Таратухина Т. С. Цифровая трансформация бухгалтерского учета //Актуальные проблемы и перспективы развития экономики. – 2019. – С. 207-211.
6. Сокерин, П. О. Применение облачных технологий в бухгалтерском учете / П. О. Сокерин // Научные стремления. — 2019. — №. 25. — С. 72–74.